



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Farg'ona viloyatida
kichik tadbirkorlik**

2021- yil yanvar-iyun


Dastlabki ma'lumotlar

Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, %da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **69,2** %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **14,6** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-iyunida **4,5** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **65,9** foizga ko'p demakdir.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da

Savdo

41,2 %

Sanoat

27,3 %

Qurilish

7,3 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

5,3 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **1858** ta, sanoatda **1233** ta, qurilishda **331** ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda **239** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **114** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 96,7



Sanoat 39,6



Qurilish 91,3



Investitsiya 74,8



Savdo 90,7



Xizmatlar 69,2



Eksport 48,1



Import 80,9



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

38 734




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

4 515

2021- yilning yanvar-iyunida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, %da



■ 2020- y.

■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar




Hududlar bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



2021- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da


2021- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Farg'ona shahri – 13,1 %, Qo'qon shahri – 10,7 %, Marg'ilon shahri – 7,8 %, Uchko'prik tumani – 5,4 %, Toshloq tumani – 5,3 %, Oltiariq tumani – 5,2 %, Quva tumani - 5,1 % hissalariga to'g'ri keldi.






Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2021– yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda

1 858 ta

Sanoatda

1 233 ta

Qurilishda

331 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
239 ta

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2021- yil yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 14,6 birlikni tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko'ra*



2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida 22,5 birlik, Quvasoy shahrida 19,8 birlik, Qo'qon shahrida 19,4 birlik, Marg'ilon shahrida 17,6 birlik, Dang'ara tumani 17,0 birlikni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida


**Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda),
2021- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra***

Eng yuqori ko'rsatkich
Farg'ona shahrida - 22,5 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich
Uchko'prik tumanida- 14,3 birlik.

Past ko'rsatkich
Beshariq tumanida - 8,4 birlik.

2021- yilning yanvar-iyunida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi




2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 69,2 %ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-iyunida 67,6 %).

YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik ulushining oshishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan izohlanadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 166,9 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 48,1 %ini tashkil etdi.



Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi


2021 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, %da



2021- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bog'dod tumanida – 100,0 %, Beshariq tumanida – 100,0 %, So'x tumanida 100,0 %, Furqat tumanida – 100,0 %, Yozyovon tumanida – 100,0 % va Marg'ilon shahrida – 100,0 %ni, eng past ko'rsatkich Toshloq tumanida – 12,3 %ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **358,4** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **80,8 %**ini tashkil etdi.



2021 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da




2021- yil yanvar-iyun oylarida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buvayda tumanida – 100,0 %, Soʻx tumanida – 100,0 %, Furqat tumanida – 100,0 %, Yozyovon tumanida – 100,0 %, Dangʻara tumanida – 99,9 % va Margʻilon shahruda – 99,9 %. Eng past koʼrsatkich Qoʼshtepa tumanida – 12,7 %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4361,2** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Uchko'prik tumani (683,6 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (634,3 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (429,6 mlrd. so'm), Farg'ona shahri (426,3 mlrd. so'm) va Bag'dod tumani (307,3 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (43,6 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi

2021- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 39,6 %ni tashkil etdi.


2021- yil yanvar-iyun holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, %da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Marg'ilon shahri (100,0%), Beshariq tumani (100,0 %), So'x tumani (100,0 %), Furqat tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100,0 %), Buvayda tumani (90,1%), Dang'ara tumani (85,8%), Bog'dod tumani (81,7%), Uchko'prik tumani (80,2%) va Oltiariq (59,4%) tumanlari tashkil etdi. Toshloq tumanida (10,6%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **7560,0** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **90,7** %ini tashkil etib. 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,6** %ni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar- iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Farg'on shahri 1609,5 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (1188,7 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (867,0 mlrd. so'm), Quva tumani (365,0 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (361,3 mlrd. so'm) va Buvayda tumanlari (312,3 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi




2020- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2837,6** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **91,3** %ini tashkil etdi. Oʼsish surʼati 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **109,5** %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʼp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg’ona shahri (618,7 mlrd. soʼm), Marg’ilon shahri (380,7 mlrd. soʼm), Bog’dod tumani (265,5 mlrd. soʼm), Qoʼqon shahri (218,4 mlrd. soʼm), Dang’ara (169,0 mlrd. soʼm) Buvayda tumani (119,7 mlrd. soʼm), Toshloq tumani (115,1 mlrd. soʼm) hamda Quva (113,1 mlrd. soʼm) tumanlarida qayd etildi.





Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5490,0 mlrd. so'mlik** xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **69,2 %**ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2020-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **118,8 %**ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Farg'ona shahri (1609,0 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (1104,8 mlrd. so'm), Marg'ilon (405,8 mlrd. so'm), Oltiariq tumani (242,0 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (179,2 mlrd. so'm), Rishton tumani (171,4 mlrd. so'm) va Buvayda tumani (165,9 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

2021-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


**2021- yilning yanvar-iyunida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da:**




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 92,8 %ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,7 %ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,1 %ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 %ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,7 %ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,3 %ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,1 %ni tashkil etib, 2020- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,2 %ni tashkil qildi.




Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 1648 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 754 (45,7 %) tasi iqtisodiy vaziyatni joriy davrda qulay deb baholadi. 837 (50,8 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 57 (3,5%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4,2 % (70 ta), sanoatda – 24,6 % (405 ta), qurilishda – 7,2 % (119 ta), savdoda – 38,2 % (629 ta), xizmatlar sohasida – 25,7 % (425 ta) ni tashkil etdi.

2021- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, %da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar






Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Farg'ona shahri (260 ta), Qo'qon shahri (195 ta), Marg'ilon shahri (149 ta), Oltiqriq tumani (98 ta), Uchko'prik tumani (85 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2021- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da




Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2021- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



2021- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2021- yilning II choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 58,8 %ni, xizmatlar sohasida 45,9 %ni, sanoatda 45,2 %ni va savdoda 44,8 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 55,7 %ni, savdoda 52,2 %ni, xizmatlar sohasida 51,0 %ni, sanoatda 50,9 %ni tashkil etdi.

2021- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 61,3 %ni, xizmatlar sohasida 58,8 %ni, savdoda 58,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 48,6 % ni, sanoatda 43,0%ni, savdoda 39,9%ni xizmatlat sohasida 38,3 %ni, tashkil etdi.

